



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Yusupov Abbosxon Aliyevich,

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot"

kafedrası v.v.b dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

abboskhony90@gmail.com

Aliyeva Zahroxon Shavkatjon qizi,

Qo'qon universiteti talabasi.

zahroxon6043@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1596>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 36

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

kichik biznes, investitsiya, aholi bandligi,
yalpi ichki mahsulot, tadbirkorlik, kapital,
innovatsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hisssasi hamda ushbu faoliyatni yuritish va rivojlantirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ikkilamchi ma'lumotlar manbalari, xususan, rasmiy statistika ko'rsatkichlari, ilmiy adabiyotlar va tahliliy hisobotlardan foydalanilgan holda ilmiy izlanishlar olib borildi.

Ilmiy tadqiqotda statistik ko'rsatkichlar asosida mamlakatda kichik biznes bilan band bo'lgan aholining ulushi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi hisssasi hamda bandlik darajasiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari faoliyatida uchrayotgan asosiy muammolar, jumladan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, soliq yukining ta'siri, boshqaruv va marketing ko'nikmalarining yetarli emasligi kabi omillar tahlil qilindi.

Maqola yakunida kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional muhitni yaxshilash hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 36

KEYWORDS

Small business, investment, employment,
gross domestic product (GDP),
entrepreneurship, capital, innovation

ANNOTATION

This article comprehensively analyzes the role of small business entities in ensuring employment of the population, their contribution to economic development, and the challenges that may arise in the process of operating and developing this type of activity. The research is based on secondary data sources, including official statistical indicators, scientific literature, and analytical reports, which were used to conduct the study.

In the course of the research, statistical indicators were used to examine the share of the population employed in small businesses, their contribution to gross domestic product, and their impact on employment levels from both theoretical and practical perspectives. In addition, the main challenges faced by small business entities were analyzed, including limited access to financial resources, the impact of the tax burden, and insufficient managerial and marketing skills.

The article concludes with scientifically grounded findings and practical recommendations aimed at further developing small business activities, increasing employment, and addressing existing challenges. These recommendations are intended to improve support mechanisms for small businesses, enhance the institutional environment, and promote entrepreneurial activity.

Kirish. Kichik biznes keng qamrovli tushuncha hisoblanib, faoliyati davomida ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy aylanmasi va band bo'lgan xodimlar soni, belgilangan me'yorlar doirasida shakllangan hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari davlat budjeti mablag'lariga tayanmagan holda, katta kapital qo'yilmalar talab qilmagan holda xususiy mulkchilik shaklida faoliyat yuritib, iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.[1] Davlatning oqilona iqtisodiy siyosati natijasida, mamlakat aholisini daromadi yaxshilangan holatda ijtimoiy faolligi, turmush tarzi ijobiy tarafga o'zgarib boshlaydi. Kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashining nazariy asoslarini o'rganish muhimligi shundaki, kichik biznes va tadbirkorlik O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan bir qismini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta'minlaydi. Bu barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, negaki, ular nafaqat yangi ish o'rinlari yaratilishini, soliq tizimlari orqali budjetga qo'shimcha daromad keltirishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda butun jahon iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri kichik biznes hisoblanmoqda.

Jahon banki va OECD tashkilotlarini rasmiy statistik ma'lumotiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda aholining 60-70% kichik va o'rta biznes subyektlarida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy tadbirkorlik ulushi 30-50% ni tashkil etadi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tegishli tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirildi. Shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va faoliyat yuritish tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan bir qator qonunlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, 2025-yil Oliy Majlis Senatining 15

avgustdagi yig'ilishida Tadbirkorlik kodeksi ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasining bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq 5000 ga yaqin normativ hujjatlar mavjud hisoblanadi. Hujjatlarning nihoyatda ko'pligi ulami amalda qo'llashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa tadbirkorlik sub'yektlarining asosli e'tirozlariga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Tadbirkorlik kodeksiga 100 dan ortiq qonunchilik hujjatlari, jumladan 9 ta qonun birlashtirilganini keltirish mumkin, ular quyidagi qonunlardan iborat:

1. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun;
2. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonun;
3. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonun;
4. "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonun;
5. "Xususiy korxonaga to'g'risida"gi qonun;
6. "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun;
7. "Firma nomlari to'g'risida"gi qonun;
8. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun;
9. "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonun.

Bundan kelib chiqib, bugungi kunda kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga besh yil davomida ular ro'yxatdan o'tgan kunidagi soliq va majburiy to'lovlar stavkasini qo'llash huquqi beriladi. Kichik

biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilmoqda: banklar tomonidan imtiyozli stavkalar bo'yicha kreditlar berish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ma'sul institut tomonidan biznes manfaatlarini himoyalangan. O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rejadani tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik subyektlari ma'muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan.

Adabiyotlar tahlili. Respublika bo'yicha tadbirkorlarga biznes yuritish bo'yicha o'quv kurslari, xususiylashtirilgan obyektlar bazasida loyihalar amalga oshirish, 5 yil muddatga nol stavkada ijara asosida yer maydonlari ajratish orqali yosh tadbirkorlar uchun klasterlar tashkil etildi [5]. Ushbu omillar ta'sirini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Respublikada kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotda 2025-yilning 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 212,0 mingtani, shundan, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 479,0 mingtani, YATTLar soni 281,9 mingtani, dehqon xo'jaliklari soni 422,3 mingtani, oilaviy tadbirkorlar 5,8 mingtani, hunarmandlar 22,1 mingtani va import tovarlari sotuvchilar 0,9 mingtani tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-sentabrda 62,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi [2].

I.Choriyeva tomonidan yozilgan "Aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari (mintaqalar misolida)" nomli ilmiy ishida O'zbekiston miqyosida 2024-yil holatiga ko'ra, ish bilan band aholining 75 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida faoliyat yuritmoqda. Tahlillarga ko'ra xususiy tadbirkorlik va kichik biznes egalari uchun, soliq yukini kamaytirish va investitsiyalarni kirib kelishni rag'batlantirish orqali biznesda ishchi kuchini yanada kengaytirish mumkin hisoblanadi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda barcha hududida, viloyatlar iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, transport infratuzilmasining rivojlanganligi hamda demografik omillar jihatidan sezilarli farqlarga mavjud ekanligi va mazkur omillarni inobatga olgan holda kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlarini hududlar kesimida differensial tarzda shakllantirish zarur. Aks holda tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan natijalarga erishish imkoniyati cheklanib, umumiy samaradorlik darajasi pasayishi mumkin. Jahon banki rasmiy hisobotiga ko'ra 2020-yilda O'zbekistonda 2000 dan ortiq davlat korxonalar mavjud bo'lib, ularning umumiy daromadlari YAIMning qariyb 32 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, ularning 80 foizi xususiy korxonalar va kompaniyalar uchun samarali faoliyat olib borish imkoniyati yuqori bo'lgan sohalarida faoliyat ko'rsatgan. [3]

Caroline Reeg (2015) tomonidan yozilgan "Micro and small enterprises as drivers for job creation and decent work" maqolasida, yuqori, o'rta va past daromadli mamlakatlarda mikro va kichik korxonalar, xususiy sektor korxonalarining eng katta ulushini va bandlikning asosiy qismini tashkil qilishi.

Kichik va o'rta biznes korxonalaridan, masalan, startaplar va o'zini o'zi ish bilan ta'minlaganlar orqali kelib chiqadigan ish o'rinlari hissasi sifatida belgilanadi, innovatsion faoliyatni amalga oshirsa va shu bilan raqobatbardoshligi va bozor ulushini oshirishi, ular unumdor ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'sha olishlari mumkinligi ko'rsatilgan.

Shuningdek ushbu maqolada barcha kichik va o'rta biznes korxonalarini o'rtasida unumdorlikning o'sishini, ish o'rinlarini yaratishni va munosib ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish uchun siyosatchilar yanada fundamental siyosat islohotlari va aralashuvlarini amalga oshirib, barcha kichik va o'rta biznes korxonalarini uchun yagona siyosat yondashuvi mavjud bo'lmasa-da, ushbu hisobot kichik va o'rta biznes korxonalariga unumdorlikni oshirish va mehnatga qulay investitsiyalarda yordam beradigan turli xil siyosat choralarini mavjudligini ko'rsatishi haqida muhim tavsiyalar berilgan.

Dr Isotilia Costa Melo va Geandra Alves Queiroz mualliflar kichik va o'rta biznesda, ishchi sonini ko'paytirishni samaradorligini o'lchash orqali innovatsiya qobiliyatini yaxshilashning asosiy yo'lini taklif qilingan. Maqolada, biznesning xususiyatlari, ish muhiti, farovonlik va rahbarlik madaniyati kabi ijtimoiy omillarni muhim deb hisoblaydi. Bu omillar innovatsiya jarayoniga ta'sir qiladi va ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud ekanligi. Shunday qilib, mualliflar innovatsiya va ijtimoiy jihatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ko'rsatib berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik tadbirkorlik subyektlarini aholini ish bilan bandligida muhim o'rin tutushini nazariy va amaliy jihatlarini ikkilamchi ma'lumotlarga asoslanib o'rganishga qaratilgan bo'lib, mavjud muammolar va ularni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish tadqiqotning asosini tashkil etadi. Tadqiqot mahalliy va xorijiy ilmiy izlanuvchilar tajribalari asosida tahlil qilinib, rasmiy statistikalarni ma'lumotlar tavsiflovchi va guruhlovchi statistika usullari qo'llanilishi asosida tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqot O'zbekistonda kichik biznes tadbirkorligini yanada kengaytirish, iqtisodiy o'zgarishlarni tezlashtirish, ko'proq ish o'rinlari yaratishdagi muammolar va global iqtisodiyotdagi mavqeyini mustahkamlashga yordam berishi mumkin bo'lgan takliflar berib o'tilgan.

Tadqiqot natijalari. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, uni tarkibidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari paralell ravishda o'sishi zarur hisoblanadi. Xususiy mulkchilikning ahamiyatligi shundagi, har qanday kichik, o'rta, yirik biznes egalari o'z korxonalarini orqali ishga layoqatli aholini ish bilan ta'minlab ishsizlik darajasini kamaytirishda ko'makchi hisoblanadi. Misol uchun: 1-jadvaldagi viloyatlar kesimida 2024-yillarda hududlar kesimida kichik va o'rta biznes subyektlarida band bo'lganlar soni mavjud.


1-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni (ming kishi).[2]

№	Hududlar	2024-yil
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	563,9
2	Andijon viloyati	1094,4
3	Buxoro viloyati	601,5
4	Jizzax viloyati	434,9
5	Qashqadaryo viloyati	1020,1
6	Navoiy viloyati	226,1
7	Namangan viloyati	949,5
8	Samarqand viloyati	1236,1
9	Surxondaryo viloyati	792,3
10	Sirdaryo viloyati	258,3
11	Toshkent viloyati	889,5
12	Farg'ona viloyati	1258,3
13	Xorazm viloyati	621
14	Toshkent shahri	682,8

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan O'zbekiston rasmiy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, 2024-yilda eng kam 226 ming kishi bilan Jizzax viloyatida, eng ko'p band bo'lganlar Farg'ona viloyatida 1 milliondan ortiq kishi kichik tadbirkorlik bilan band, bunda viloyat aholi soni ham ahamiyatga ega, Navoiy

viloyatida aholisi Farg'ona viloyatidan nisbatan kamroq. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Xorazm viloyatlarida 500-600 ming atrofida, Andijon va Qashqadaryo o'ziga farq bilan 1 million kishi shu sohada faoliya olib bormoqda.



1-rasm. Kichik biznesda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni (ming kishi)

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ayrim hududlarda soliq yuki pastligi yoki ishchi kuchi, malakali kadrlar yetarli bo'lgan holatlarda, reytingda old o'rinlarni egallashgan, ba'zi hududlar chekka va aholisi kam, tog' yoki cho'l hududlarda ishlab chiqarish, biznes yuritish uchun noqulay joylashuvlar, barcha viloyatlarni parallel ravishda barqaror rivojlantirish muammosini keltirib chiqarmoqda. Agar bu holatlar inobatga olinmasa migratsiya va aholi joylashuvi nomutanosibligi yuzaga keladi.

Tadqiqotda nazarda tutish mumkinki, zamonaviy kasblarda inson omili kamayishi, sun'iy intellekt ba'zi, eng quyi darajadagi ish o'rinlariga salbiy ta'siri kelib chiqadi. Xorijiy manbalar tahlilida O'zbekistonda raqobatbardosh biznes muhitini yaratish uchun Jahon banki keng qamrovli tartibga solish islohotlarini tavsiya qiladi. Bunga energetika, temir yo'l transporti va telekommunikatsiya kabi sohalarida mustaqil tartibga soluvchilarni tashkil etish va raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vakolatlarini kengaytirish kiritilgan hisoblanadi.

Muhokama. Kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlanishi bevosita Respublika iqtisodiyotini, yalpi ichki mahsulot va bandlik ulushini barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va targ'ib qilishda ishtirok etish davomida texnik va psixologik to'siqlarning mavjudligi tan olingan va shu munosabat bilan mavjud muammolarni bartaraf etish jarayoniga ustuvor ahamiyat berilgan. Faol tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektorida mahalliy va xorijiy innovatsiyalarni targ'ib qilish zarur hisoblanadi. Xususiy mulk va tadbirkorlikni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik kuchaytirilib, ro'yxatdan o'tkazish, ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tkazish va tugatish, ayrim faoliyat turlari uchun litsenziyalash va ruxsatnomalar berish jarayoni soddalashtirildi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka davlat aralashuvi cheklanib, biznes tomonidan hisobot berishning barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirilishiga qaramay, ma'muriy to'siqlar sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Byurokratik to'siqlar va normativ-huquqiy hujjatlarini amalga oshirishdagi nomuvofiqliklar tadbirkorlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Muammo qonunchilikdagi o'zgarishlar juda tez-tez sodir bo'lishi bilan murakkablashadi, bu esa tadbirkorlardan yangi qoidalarini doimiy ravishda kuzatib borishni va ularga rioya qilishni talab qiladi. Keyingi navbatda, kadrlar muammosi ham juda dolzarbdir. Ko'pgina kichik bizneslarda, ayniqsa texnik va boshqaruv sohalarida malakali mutaxassislar yetishmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek infratuzilma cheklovlarini, ayniqsa qishloq joylarda, kichik biznesni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport va aloqa infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tadbirkorlik subyektlarining tijorat bozorlariga chiqishi, yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishini murakkablashtiradi. Ushbu muammo zarur logistika markazlari va zamonaviy omborlarning yo'qligi bilan yanada og'irlashishi mumkin. Navbatdagi bosqichda kichik biznes eksportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur deb qaraladi. 2017-yildan keyin 5 yil davomida O'zbekistonda savdo-sotiqning YalMga nisbati ikki baravardan ko'proqqa oshdi va 2022-yilda 71,6% ga yetdi. Shunga qaramay, mahalliy firmalarning atigi 6% eksport bilan shug'ullanadi. Xalqaro bozorlarga chiqish, iqtisodiy o'sish uchun muhim turki bo'lishi mumkin, ammo ko'plab korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatda tajribaning yo'qligi, tashqi bozorlar haqida ma'lumotning

yetishmasligi va xalqaro sifat standartlariga javob berish zarurati bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.[7] Agar ushbu islohotlar amalga oshirilsa, O'zbekistonga iqtisodiy o'zgarishlarni tezlashtirish, ko'proq ish o'rinlari yaratish va global iqtisodiyotdagi mavqei mustahkamlashga yordam berishi mumkin.

Elektron tijorat, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli marketing kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish kichik biznesning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu tadbirkorlarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish dasturlari, shuningdek, biznes yuritish uchun qulay raqamli platformalarni yaratishni talab qiladi. Chunki, hali juda ko'p tadbirkorlar asosan an'anaviy usullardan foydalanib kelishmoqda.

Maqolada biznes muhitini yaratish, soliq qoidalarini soddalashtirish, subsidiya dasturlarini ishlab chiqish va investitsiyalarni rag'batlantirish - bularning barchasi kichik biznesga qiyinchiliklarga tezda moslashish va paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanish imkonini berishi nazarda tutildi.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilash, tartibga solish muhitini soddalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash kabi o'zaro bog'liq holda yondashuv talab etiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xususiy sektor tashabbuslari bilan birgalikda kichik biznesning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishi mumkin, bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga va aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa. Mavjud muammolarga qaramay, Mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasida kichik biznesning roli va ahamiyati sezilarli darajada kuchaymoqda, bu asosan davlatning iqtisodiy va huquqiy tizimini isloh qilish jarayonlari va kichik biznesni rivojlantirishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida tasniflash bilan bog'liq. Yuqoridagilarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish strategiyasi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Davlat kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda alohida rol o'ynaydi, chunki kichik biznesni rivojlantirish ishsizlik muammolarini hal qilishi, mehnat unumdorligini oshirishi hamda bozorni innovatsiyalar bilan boyitadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida, mamlakatda korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun turli moliyaviy manbalar asosida moliyalashtirish tizimini quyidagi takliflar orqali shakllantirish mumkin:

Davlat mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, investitsiyalar, tijorat banklari va moliya institutlarining kreditlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari, xalqaro standartlarga muvofiq kredit uyushmalari faoliyati kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirishning aniq manbalari yo'lga qo'yiladi.[8]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtirokini kengaytirish hamda davlat xaridlari tizimini yanada soddalashtirish savdo ochiqdigi ortib borayotgan sharoitda tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini yaratish davomida ushbu imkoniyatlardan foydalanish uchun:

Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va logistika va transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish tavsiya etiladi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlarini eksportga jalb etish uchun moliyaviy va institutsional

qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport qiluvchi korxonalariga axborot va konsalting markazlari faoliyatini O'zbekistonda ham muntazam takomillashtirish, xizmatlarni kengaytirish, ularning xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soliyev, I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system: technological approach. Bulletin of pedagogy: science and practice, (51), 150-151.

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi rasmiy saytidan olindi. <https://stat.uz/>

3. Jahon banki. Uzbekistan Economic Update: Boosting Employment through Private Sector Development. – Washington, 2023.

4. Turanboyev B. (2024). Qo'qon Universiteti Mustaqil Izlanuvchisi (PhD) "Kichik Tadbirkorlik Subyektlarini Soliqqa Tortishning Nazariy Jihatlarini"

5. Soliev, I. I. (2020). BASIC FACTORS OF DEVELOPMENT INNOVATIVE DEYATELNOSTI.

6. Boburmirzo X., Abbosxon Y. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatining rivojlanish tahlili.

7. Ogli, T. B. Q. (2021). Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishga erishishlarida soliqqlarning ta'sirchanligini oshirishning ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.

8. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN Dilshod Yoldoshevich Goyibov Teacher of the Department of "Accounting and Business" Tashkent Transport Technical School, Tashkent

9. CURRENT ISSUES AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN THE REPUBLIC OF

Bojxona va chegaraoldi jarayonlarida raqamlashtirishni chuqurlashtirish tranzaksiya xarajatlarini qisqartirib, savdo hajmlarining oshishiga xizmat qiladi. Natijada, savdo ochiqligining ortishi barqaror iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash uchun yanada samarali omilga aylanishi mumkin.

UZBEKISTAN Maripova Shahlo Akramovna Researcher, Namangan State University Republic of Uzbekistan Leading Student Support officer at Westminster International University in Tashkent

10. Maxmudova D. Davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solish va qo'llab quvvatlashda xorij tajribasi. International scientific journal volume I issue 7

11. Morris Wright. 03.06.2023. Qiyosiy tadqiqot usuli: xususiyatlari, bosqichlari. ([tps://uz.warbletoncouncil.org/metodo-comparativo-15644](https://uz.warbletoncouncil.org/metodo-comparativo-15644))

12. Farhod o'g'li, X. B. (2024). KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA TRANSFORMATSIYASI: Yangi o'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari. Yangi o'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 4(1), 83-86.

13. Farhod o'g'li, X. B. (2024). Biznes yuritishning me'yoriy-xuquqiy asoslari va institutsional sharoitlari. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(2), 126-130.

14. José Luis Polo-Otero. Are the business regulations creating new entrepreneurship? Contaduría y Administración 65 (2), 2020, 1-21

15. Kotler, P. (1998) Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control. 9th Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River

16. Gulnoz Iskandarovna. 2022, Methodology of comparative analysis. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", No 1(42), 180-189